XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 24 - fevral VI-44-19-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

"Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining tumandagi ijrosi to'g'risida

Tuman Ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi guruhi tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida Boysun tuman IIBYHX guruhi katta inspektori katta leytenant Toshpo'lotov Aziz Turg'unovichning hisoboti, deputatlarning bildirgan fikr-mulohazalar va takliflari inobatga olinib, xalq deputatlari viloyat Kengashi qaror qiladi:

1. Tuman Ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi guruhi tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida Boysun tuman IIBYHX guruhi katta inspektori katta leytenant Toshpo'lotov Aziz Turg'unovichning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman IIBYHX guruhi (A.Toshpo'latov)ga tuman avtoxo'jaliklari, transport korxonalari, mehnat jamoalarida, o'quv muassasalarida aholi o'rtasida doimiy ravishda YHXB mas'ul xodimlari va mutaxassislari tomonidan ko'rgazmali tartibda profilaktik suhbatlar hamda ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yo'l harakati xavfsizligiga tegishli turli tadbirlar o'tkazish yuklatilsin.

3.Tuman IIBYHX guruhi (A.Toshpo'latov)ga, tuman YXTPTFK (Z.G'afforov) bilan birgalikda yil yakuniga qadar yo'llarda uzluksiz va xavfsiz harakatni ta'minlash maqsadida, tuman Ichki ishlar bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan yo'l xaritasiga asosan ishlar tashkillashtirilsin.

4. Tuman IIBYHX guruhi (A.Toshpo'latov)ga tumanda mavjud avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash maqsadida tumanda diagnostika markazlarini qurilishini ta'minlash takliflari ishlab chiqilsin.

6.Tumanda yo‘l transport hodisalarini barvaqt oldini olish va yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘llarda xavfsiz harakatlanishini ta’minlash maqsadida, tuman hokimligi bilan hamkorlikda transport vositalarini tezligini o‘lchovchi onlayn tizimida ishlaydigan fotoradar moslamalari xarid qilish choralarini ko‘rsin.

7. tuman YXTPTFK (Z.G’afforov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

yil yakuniga qadar mavjud ma’naviy eskirgan (hozirgi talablarga javob bermaydigan) svetaforlarni zamonoviy diodli svetoforlarga almashtirish hamda piyodalar o‘tish joylariga tugmali svetaforlar o‘rnatish choralari ko‘rilsin.

yo‘llarga shovqinli chiziqlarini chizish uchun maxsus texnika vositasini xarid qilish yuzasidan mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda takliflar kiritish choralari ko‘rilsin.

9. Boysun tuman Xalq ta’lim bo’limi (B.Soxibov) tuman hududidan o‘tuvchi xalqaro va davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan katta yo‘llar yoqasida joylashgan umumta’lim maktablarida Yo‘l harakati qoidalari darsliklarini o‘tilishi tashkil etilib, unda qo‘shimcha dars soatlari ajratilishi va o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish uchun mutaxassis o‘qituvchilarni jalb etish choralari ko‘rilsin.

10. tuman YXTPTFK (Z.G’afforov), T**uman IIBYHX guruhi** (A.Toshpo’latov) tuman hududidagi maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oldida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida ko‘cha va yo‘llarning maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oldidan o‘tgan qismida transport vositalarining harakat tezligini cheklash uchun 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (50 km/soat, yo‘l sharoitini hisobga olgan holda 30 km/soat) yo‘l belgilari o‘rnatish choralari ko‘rilsin.

11. Boysun tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari (Y.Xoliyorov) va “Boysun” gezetasi (X.Qarayev)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish bo‘yicha tavsiya etilsin.

12. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorak yakunida** tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Tursunqulov) zimmasiga yuklansin.

14. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Ch.Jo'rayev**